



KASB TANLASH JARAYONIDA O'QITUVCHILIK KASBIGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Kutlimuratova Guldana Rustemovna

NDPI "Pedagogika psixologiya va ijodiy ta'lim" fakulteti

Umumiy pedagogika kafedrası stajyor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21920020>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-avgust 2026 yil

Ma'qullandi: 11-avgust 2026 yil

Nashr qilindi: 13-avgust 2026 yil

KEY WORDS

Kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, o'qituvchilik kasbi, pedagogik asoslar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada kasb tanlash jarayonida o'qituvchilik kasbining o'rne va ahamiyati yoritiladi. Unda o'quvchilarning kasbga yo'naltirilishida pedagog kasbining ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning o'qituvchilik kasbiga qiziqishini oshirish, ularning pedagogik faoliyatga moyilligini aniqlash va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilik kasbining nufuzi va jamiyat rivojida o'rne asoslab beriladi. Maqolada kasb tanlashda motivatsiya, qiziqish va ijtimoiy omillarning ta'siri ham ochib beriladi.

Bugungi kunda yosh avlodni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'qituvchilik kasbi jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Har bir insonning kelajakdagi muvaffaqiyati uning kasb tanlashdagi to'g'ri qaroriga bog'liqdir. Shu sababli maktab o'quvchilarini ongli ravishda o'qituvchilik kasbiga yo'naltirish zarur hisoblanadi. Zero, tanlangan kasb shaxsning nafaqat iqtisodiy holatiga, balki uning jamiyatdagi mavqei va ma'naviy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida kasb tanlash jarayonida shaxsning individual xususiyatlari, bozor talablari hamda ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb tanlash – bu shaxsning hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo'lib, u nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonida pedagoglar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda maslahatlar berishi, psixologik diagnostika o'tkazishi va kasbiy yo'naltirish ishlarini tizimli tashkil etishi zarur. Bu esa o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashiga va ongli ravishda kasb tanlashiga yordam beradi. Kasblar ichida eng muhim va mas'uliyatli kasb turi o'qituvchilik hisoblanadi. U nafaqat bilim beradi, balki yosh avlodni tarbiyalaydi, ularning dunyoqarashi va kelajagini shakllantiradi.

Pedagogik omillar va prinsiplar

Pedagogik yo'naltirish o'quvchilarda o'qituvchilik kasbiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, kasbning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish hamda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, o'qituvchilik kasbiga yo'naltirishda quyidagi pedagogik omillar muhim hisoblanadi:

- ta'lim jarayonida kasbga oid bilimlarni berish;
- o'qituvchi shaxsiga xos sifatlarni shakllantirish (mas'uliyat, sabr, kommunikativlik);
- amaliy mashg'ulotlar va pedagogik tajribalar orqali kasbni chuqurroq anglash;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'qituvchilik faoliyatida ma'lum bir sharoit (vaziyat)da ijtimoiy qimmatli motivlarga ko'ra ta'lim-tarbiya maqsadi sari yo'naltirilgan o'ziga xos vositalar asosida mo'ljallangan pedagogik natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir. Professor-o'qituvchining pedagogik faoliyati son-sanoqsiz o'quv-tarbiya vazifa (masala)larini o'quvchilar bilan birga yechishdan iborat. Ulardan eng muhimi ta'lim tarbiyaning maqsadini oydinlashtirib, o'quvchilar bilan hamkorlikda ro'yobga chiqarishdir. O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi jarayonida o'quvchilarga ijobiy, samarali tarbiyaviy ta'sir o'tkazish uchun, avvalo o'qituvchining shaxsi, ilmiy-pedagogik faoliyati ma'lum talablarga javob berishi lozim. U yuksak g'oyaviylik, ishchanlik, ilmiy-ijodkorlik va axloqiy sifatlarni o'zida mujassamlantirishi talab etiladi. O'quvchi o'zining sevimli o'qituvchisiga o'xshashni istaydi, unga ergashadi, shogird bo'lishga intiladi. O'qituvchi ta'lim jarayonida aytgan fikr mulohazalarigina emas, balki uning kim ekanligi, hayotda, turmushda o'zini qanday tutishi, ilm-fan sohasida nimalarga qodir ekanligi va katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega. O'quvchilar birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchining nimalarga qodir ekanini, ilm-fanga qo'shgan hissasini, bilimdonligi va ma'naviy-axloqiy qiyofani tezda payqab oladilar va shunga qarab o'zaro hamkorlik munosabatida bo'ladilar. Ular o'qituvchini faqat mashg'ulotlarni yaxshi o'tgani uchungina emas, balki shaxsiy-insoniy va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini uchun ham hurmatlaydilar. Va aksincha o'quvchilar bilimi sayoz o'qituvchini xush ko'rmaydilar. O'qituvchi faoliyati samarali bo'lishi uchun pedagogik asoslar muhim ahamiyatga ega. Pedagogik asoslar — bu ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy, metodik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan tamoyillar va qoidalar tizimidir. Ular o'qituvchining dars o'tish jarayonini samarali tashkil etishini ta'minlaydi.

O'qituvchi faoliyatining asosiy pedagogik prinsiplari

Ilmiylik prinsipi

O'qituvchi dars jarayonida ilmiy jihatdan asoslangan, aniq va zamonaviy bilimlarni berishi lozim.

Tizimlilik va izchillik prinsipi

O'quv materiallari ketma-ket, oddiydan murakkabga tomon tartibda o'rgatiladi.

Onglilik va faollik prinsipi

O'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi va savol-javoblarda qatnashishi kerak.

Ko'rgazmalilik prinsipi

Dars jarayonida turli ko'rgazmali vositalar (rasm, jadval, slayd, video)dan foydalaniladi.

Tarbiyaviy yo'nalish prinsipi

Har bir dars o'quvchilarda axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Individual yondashuv prinsipi

Har bir o'quvchining qobiliyati va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi.

Amaliyot bilan bog'liqlik prinsipi

Nazariy bilimlar hayotiy tajriba va amaliyot bilan bog'lab o'rgatiladi.

Bu prinsiplarni o'zida mujassam qilgan o'qituvchi o'z faoliyatini natijali olib borishiga katta yordam beradi.

Xulosa. Kasb tanlash jarayonida o'qituvchilik kasbiga yo'naltirishning pedagogik asoslari o'quvchilarda kasbga ongli munosabatni shakllantirish, ularning qobiliyat va qiziqishlarini to'g'ri aniqlash hamda jamiyat ehtiyojlariga mos kasb tanlashiga ko'maklashishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o'qituvchi yo'naltiruvchi va tarbiyachi sifatida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik yo'naltirishning samarali tashkil etilishi kelajakda malakali va kasbiga sadoqatli pedagog kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi. Darslik T.: «Barkamol fayz media nashriyoti», 2018.
2. D.M.Anvarova, P.S.Ergashev. Kasbga yo'naltirish va kasbga tanlash asoslari. O'quv qo'llanma T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.
3. A.I.Avazboyev, Y.U.Ismadiyarov. Kasbiy pedagogika. O'quv qo'llanma T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014.
4. I.M.Sirojiddinova, O.X.Pulatova. Kasbiy psixologiya. O'quv qo'llanma Toshkent 2021.
5. O.O.Daminov. Kasbiy pedagogika. Darslik T.: "Adabiyot ushquni", 2018.
6. Saparbaev T. "Pedagogikaning pragmatik aspektleri " No'kis " PRINT DARHAN" 2025.
7. Saparbaev T "Mektep do'gerek jumislarinin' pedagogikalik ahmiyeti" (Monografiya) No'kis "NMPI Baspasi"-2025.

INNOVATIVE
ACADEMY